# 2019 yilning yanvar-fevral oyida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 6095,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 99,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 100,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 98,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 105,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 110,2 % ga o'sish hisoblanadi.

***2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha saoat ishlab chiqarish tarkibi***



***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2298,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 37,7 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3368,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,2 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,3 % ni, o'rta-yuqoritexnologiyali - 5,2 %, o'rta-quyi texnologiyali - 44,4 % va quyi texnologiyali - 5,3 % tashkil etdi.

***Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi ulushi - 6,6 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 69,6 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi - 4,9 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish ulushi - 8,4 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi - 4,6 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2018 yil yanvar-*fevral oylarida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil yanvar-*fevral oylarida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Portlandsement, ming tonna** | | |
| 526,0 |  | 490,0 | 93,2 |
| | **So’ndirilmagan va so’ndirilgan ohak , tonna** | | |
| 3491,6 |  | 6544,0 | 187,4 |
| | **Ammoniy nitrat, ming tonna** | | |
| 35,83 |  | 42,57 | 118,8 |

**Temir beton, tonna**



| | | |
|---|---|---|
| 6528,3 | 6980,31 | 106,9 |



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 417,9 mlrd.so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,5 mlrd.so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



### *Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2018 yil *yanvar-fevral oylarida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil *yanvar-fevral oylarida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | *Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna* | | |
| 9171,0 |  | 6197,0 | 67,6 |
| | *Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm* | | |
| 2225,45 |  | 3045,54 | 136,9 |

### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 341,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 99,3 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 5,6 % ni tashkil etdi.

### Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




### 2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi



## *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 224,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

### *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi,%.*



***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***




***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi***

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 556,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi

***2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korhonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %***



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Xatirchi (100,0 %), Uchquduq (99,9 %), Qiziltepa (77,4 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (76,1 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,9 %), Konimex (22,5 %), Karmana (38,2 %) tumanlarida kuzatildi.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 1941 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 586 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 30,2 %) Navoiy shahriga, 341 tasi (17,6%) Karmana tumaniga, 257 tasi (13,2 %) Nurota tumaniga to'gri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**

*(2019 yil 1 mart holatiga)*



2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 144 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 18,8 foizi Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**

*(2019 yil yanvar-fevral )*




**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining**
**Sanoat statistikasi bo'limi**
Aloqa telefoni: (436) 223-33-29